



THE HISTORY OF INTERNATIONAL RELIGIOUS ORGANIZATIONS

Umidjon Khodjayev

tutor

*International Islamic Academy of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: politics, integration, state, organization, religion.

Abstract: This article analyzes and discusses the history of international religious organizations.

Received: 28.11.23

Accepted: 30.11.23

Published: 02.12.23

XALQARO DINIY TASHKILOTLARNING VUJUDGA KELISH TARIXI

Umidjon Xodjayev

tyutor

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: siyosat, integratsiya, davlat, tashkilot, din.

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro diniy tashkilotlarning vujudga kelish tarixi mavzusi tahlil va muhokama qilingan.

ИСТОРИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ РЕЛИГИОЗНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ

Умиджон Ходжаев

Тьютор

*Международная исламская академия Узбекистана
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: политика, интеграция, государство, организация, религия.

Аннотация: В данной статье анализируется и обсуждается история международных религиозных организаций.

KIRISH

XX asrning ikkinchi yarmida yuz bergan o'zgarishlar, siyosiy beqarorliklar, nizolar va o'zaro kelishmovchiliklar barcha davlatlarlar hayotining ko'pgina sohalarida jumladan, mafkuraviy va siyosiy yo'nalishlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Davlatlarning milliy,

mintaqaviy va mahalliy muammolarni hal etishi hamda taraqqiyotning yangi bosqichiga ko‘tarilish uchun siyosiy integratsiya ya’ni siyosiy ittifoq jarayoni alohida o‘rin tutar edi.

Siyosiy ittifoq – integratsiyaning oliy ko‘rinishi bo‘lib, u iqtisodiy va ijtimoiy asoslarga tayanadi. Bunday holatda davlatlar o‘rtasidagi siyosiy integratsiyani vujudga keltirish, integratsiya jarayonlarini yanada rivojlantirish ko‘p hollarda xalqaro va davlatlararo tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishiga harakat qilingan.

ASOSIY QISM

«Tashkilot – aniq tarkib va vazifasiga, ish dasturiga ega bo‘lgan ijtimoiy, xo‘jalik birlashmasi yoki davlat muassasasi» hisoblanadi. «Xalqaro tashkilotlarning har xil nomlanishi (tashkilot, liga, ittifoq, assotsiatsiya, fond va b.) ularning mavqeyiga ta’sir etmasligini alohida qayd etish lozim». Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamkorlikni vujudga keltirish uchun xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar olidida davlatlarning milliy xudbinligini bartaraf etish va davlatlararo manfaatlar muvozanatini ta’minlash vazifasi turadi.

Davlat rahbari Shavkat Mirziyoyevning «Integratsiya jarayonlari borgan sari nafaqat mintaqalarning ichki maqsadlari, balki tashqi muhitning ortib borayotgan talablari, kuchayib borayotgan xalqaro raqobat bilan ham belgilanmoqda. Xalqaro integratsiya mafkurasining o‘zi o‘zgarmoqda, avvallari a’zo mamlakatlarning xo‘jaliklarini yaqinlashtirishni maqsad qilgan mintaqaviy tashkilotlarning o‘zi global makon ishtirokchisiga aylanmoqdalar, integratsiya esa mintaqalarning dunyo xo‘jaligiga integratsiyalashuvi sifatida tushunilmoqda», deya ta’kidlashi zamirida tashkilotlar xalqaro munosabatlar tizimida xalqaro integratsiya, davlatlararo hamkorlikni vujudga keltiruvchi zarurat ekanligini anglashimiz mumkin.

Dunyoda vujudga kelayotgan nizolar, keskinlik va muammolarni hal etish, maqsadlarni amalga oshirish, birinchi navbatda siyosiy, iqtisodiy mustaqillikni tiklash hamda bu jabhalarda yuritilayotgan siyosatni umumdavlat manfaati doirasida yagona strategiyaga birlashtirish zarurligini anglagan holda Yaqin Sharq davlatlari ular uchun xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning ahamiyati muhimligini tushunib etishdi.

Mintaqada xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar o‘zlarining davlatlarni iqtisodiy, siyosiy jihatdan birlashtiruvchi omillari bilan farqlandi. Mintaqa davlatlarining aksariyati yagona arab tilida so‘zlashishi, diniy e’tiqod birligi, umumiy madaniyat birligi, hududiy yaqinlik, ijtimoiy tuzilmalar birligi, umumiy bozor mavjudligi, davlat boshqaruv tizimining o‘xshashligi va tarixiy yaqinlik xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning faoliyat darajasi samaradorligida katta ko‘mak berdi.

Hamkorlik jarayonlarining maqsad va yo‘nalishi, tashkiliy tuzilmalarning universalligi barcha davlatlararo mintaqaviy tashkilotlarning umumiy birligini anglatmaydi. Ko‘p hollarda

tabiatan ular faoliyatining o'ziga xosligi, ya'ni ularning qanday mavqega egaligi va qanday natijalarga erishganliklari kabi xususiyatlarida namoyon bo'ladi.

Misol uchun, Islom dunyosi Kongressi 1926 yilda Makkada arab davlatlari yetakchilari yig'ilishi natijasida vujudga kelgan. Ushbu tashkilot tarkibiga 15 ta musulmon davlati kirgan. Hindistonning ikkiga bo'linishi va musulmon aholisi asosiy ommani tashkil qiladigan Pokiston davlatining paydo bo'lishi natijasida Kongress tashabbuslari Pokistonning qo'liga o'tgan. «Islom dunyosi Kongressi musulmon diniy oqimlaridan biri neosalafiylar tomonidan faol qarshilikka uchradi. Islom dunyosining kongressi faqatgina Pokiston, Misr va Indoneziyadagi milliy tuzumlar manfaatlarini nazarda tutadigan tashkilot sifatida qabul qilingan».

Ikkinchi jahon urushidan keyin Islom ummatining porakanda bo'lib ketishi, Falastin yerlarida Isroil davlatining paydo bo'lishi bilan bog'liq inqirozli jarayonlar ko'plab musulmon ziyoli qatlamini qattiq tashvishga solib vaziyatdan chiqishning, inqirozli parokandaliklarning oldini olishning yagona yo'li sifatida musulmon dunyosini birlashtiradigan tashkilot tuzilishi hisoblandi.

Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSh tomonidan ilgari surilgan tuzilmalar asosida birlashuvga chaqiriqlar, integratsion loyihalarning barbod bo'lishi sharoitida Saudiya Arabistoni, Misr va Pokistonning tashabbusi bilan 1954 yilda Umumjahon Islom Konferensiyasi tashkil qilindi. Ushbu Konferensiyaning maqsadi musulmon davlatlari o'rtasida madaniy-ma'rifiy hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan edi. Lekin ushbu tashkilotning faoliyati ham qisqa bo'ldi va o'z-o'zidan ahamiyatini yo'qotib bordi.

Bunday tashabbus ikkinchi marta 1957 yilda Saudiya Arabistoni tomonidan ilgari surilib, unda AQSh bilan birlashgan holda arab Sharqi, Shimoliy Afrika, Eron, Turkiya va Pokistonni o'z ichiga oladigan musulmon davlatlarining Fransiya Buyuk Britaniya va Isroilga qarshi kurashishlari uchun imkon beradigan alyans tuzish taklifi bilan chiqdi. Lekin Sovet Ittifoqidan ma'naviy qarzdorligi, arab musulmon dunyosida Saudiya Arabistonining yetakchi bo'lishini istamasligi tufayli bu taklifga dastlab Misr, keyinchalik esa boshqa arab davlatlari qarshi chiqdilar va bu taklif ham ro'yobga chiqmadi.

Yaqin Sharq davlatlari hamkorligi va islom omili haqida gapirganda, Saudiya Arabistonining maqomini va rolini alohida ta'kidlamaslikning iloji yo'q. «Saudiya Arabistoni qirollari Faysal, Xolid va Faxdlar doim «Saudiya tashqi siyosatining birinchi tamoyili islom hamjihatligi, ikkinchisi esa arab birligi» ekanligini ta'kidlashgan». Qirollik hamkorlik borasida eng ko'p tashabbuslarni ilgari surganligi, arablarni (garchi, o'z etakchiligi ostida bo'lsada) birlashtirishga harakat qilganligi, moliyaviy imkoniyati yuqoriligi va integratsiya yo'lida katta mablag' sarflay olishi kabi xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi.

Ushbu intilishlar qatorida 1962 yilda Saudiya Qirolligi 32 arab mamlakati vakillarini bir erda jamladi va uchrashuvning natijasi sifatida tashkilotlardan faolligi bilan alohida ajralib turadigan Islom dunyosi Ligasi tashkil topdi. Shuningdek, Islom olamining muqaddas qadamjolari Makka va Madina shaharlarining Saudiya Qirolligida joylashganligi, Falastin ozodligi uchun ham eng katta «homiy»lardan biri hisoblanishi mamlakatning xalqaro maydondagi mavqeyini belgiladi.

Yuqorida keltirib o'tganimizdek, 1967 yilgi Isroilning tajovuzi va Falastin muammosining tobora chuqurlashib borishi bilan bog'liq voqe'liklar, davlatlarning, jumladan, Misr va Suriyaning Saudiya Arabistoniga nisbatan qarashlarini tamoman o'zgarishiga olib kelib, umumiy xavf-xatarga qarshi kurashishda hamkorlikgina ularni qutqarishiga, oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishiga imoni komil bo'ldi.

G'arb davlatlari tomonidan Isroilni doimiy qo'llab-quvvatlanishi, Falastin halqining manfaatlari hisobga olinmaganligi, har bir urush yoki tajovuzda falastinliklarning qurbon bo'lishi shuningdek boshqa ko'plab omillar Yaqin Sharq davlatlarini birlashishga undadi va bu orzuga erishishning yo'li qanday formatda amalga oshirilishi muhim hisoblandi. Alohida davlatlar hal qila olmaydigan muammolarni bajarish vositasi bu hamkorlik ekanligini anglab etgan mintaqaviy davlatlari, birlashish, hamjihatlikni yanada mustahkamlash kabi g'oyalarni rivojlantirdilar. D.Aminova fikriga ko'ra «Xalqaro jarayonlarning globallasuvi arab davlatlarining birlashishiga olib kelib integratsion tendensiyalarni vujudga keltirmoqda. Bugungi kunda ular o'z aksini mintaqaviy va submintaqaviy tashkilotlar orqali namoyon qilmoqda». Mintaqada davlatlararo hamkorlik jarayonlarini mustahkamlash va rivojlantirishda xalqaro va davlatlararo tashkilotlar etakchi o'rin tutadi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha davlatlar konsolidatsiyasini amalga oshirish borasida tuzilgan tashkilotlarning barchasining ham faoliyati qoniqarli bo'lmagan.

Yaqin Sharq mintaqasida davlatlararo hamkorlikni ta'minlash, davlatlarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamkorligini amalga oshirishga o'z hissasini qo'shgan, siyosiy jarayonlarda ishtirok etib, bugungi kunda o'z faoliyatini davom ettirib kelayotgan tashkilotlardan Arab davlatlari Ligasi, Arab neft eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti, Fors ko'rfazi arab davlatlarining hamkorlik ittifoqi, Islom hamkorlik tashkiloti va boshqalarni ta'kidlash joiz. Ushbu xalqaro va davlatlararo tashkilotlar faoliyat jihatlarini tahlil qilsak. Arab davlatlari Ligasi: 1945 yil 22 martda Arab davlatlari Ligasi tashkil etilib, shtab kvartirasi Qohira shahrida joylashgan. Tashkilot Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikadagi bir qator davlatlarni o'z tarkibida birlashtiradi. Arab davlatlari Ligasi faoliyati olimlar tomonidan tahlil etilib, Abdulg'ani Jabran El-Zahr tadqiqotida « Arab davlatlari Ligasi mudofa va iqtisodiy integratsiya sohasida davlatlarni birgalikdagi faoliyatlarini muvofiqlashtiruvchi organ sifatida vujudga keldi», - deya ta'rif beriladi. Al-Barami ta'kidlashicha «Arab Davlatlari Ligasi arab davlatlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash maqsadida tuzilgan umumiy siyosiy birlashma bo'lib, u dunyo bo'yicha birinchilardan tashkil topgan xalqaro

mintaqaviy tashkilot hisoblanadi. Tashkilot arab davlatlari integratsiyalashuvining asosi sanalib, faqat integratsiya vositasi emas, balki muvofiqlashtiruvchi organ hamdir». Arab Davlatlari Ligasi o'zining asosiy funksiyalarini bajarishga kirishar ekan, ulardan eng asosiylari bu arablar birligini saqlab qolish, milliy xavfsizlikni ta'minlash va arab millatining manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan.

Yaqin Sharq masalasini o'rganuvchi ko'pgina siyosatchilar Arab davlatlari Ligasi tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan maqsadlar ayniqsa mintaqadagi integratsiya jarayonlarining yaxshi samara bermayotganligi xolatlarini tashkilot faoliyati va me'yoriy hujjatlarini qayta ishlab chiqish va faoliyatni yangi tizimda yo'lga qo'yish zarurligida deb ta'kidlashadi. Garchi Arab davlatlari Ligasi mintaqadagi davlatlar integratsiyasining eng muhim qadami bo'lsada, tashkilotning xalqaro maydondagi obro'si va faoliyati bir muncha cheklanganligi bois mintqa davlatlari o'z manfaatlarini, siyosiy irodalarini namoyon qiladigan boshqa bir xalqaro tashkilotga ehtiyoji mavjud bo'lgan.

Arab neft eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti: arab mamlakatlari iqtisodiy faoliyatida hamkorlikni amalga oshirishda Quvayt, Liviya, Saudiya Arabistoni hukumatlari o'rtasida imzolangan bitimga asosan 1968 yilda tashkil etilgan Arab neft eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti vujudga kelgan. Integratsiyalashuv nazariyasiga asosan Arab neft eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti savdo iqtisodiy hamkorlik modeli bo'lib, mustaqil davlatlararo iqtisodiy tashkilot sanaladi. Tashkilotning asosiy maqsad va vazifasi a'zo davlatlarni birlashtirish hamda neft siyosati masalalarini muvofiqlashtirish hisoblanadi. ANEQDT hujjatlarida milliy daromadining asosiy qismini neft tashkil qiladigan arab davlatlari tashkilot a'ziligiga qabul qilinishi qayd etilgan. Arab davlati nefti "1989 yil ma'lumotlariga ko'ra jahon zahirasining 52% tashkil qilgan".

Arab neft eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti faoliyati arab davlatlari neft siyosatini muvofiqlashtirib, investitsiya siyosatini ratsionalizatsiyalash imkoniyatini oshiradi. A'zo davlatlar o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlar bo'lsada Arab neft eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti jahon neft sanoatida eng muhim aktor sanalib, xalqaro miqyosda neft siyosatida etakchi mavqega ega tashkilot hisoblanadi.

- Fors ko'rfazi arab davlatlarining hamkorlik kengashi: arab davlatlari Tashqi ishlar vazirlarining Ar-Riyod shahrida o'tkazilgan yig'ilishida Fors ko'rfazi davlatlari o'zaro yaqin aloqalar o'rnatishi muhimligi e'tirof etilgan. Yig'ilishda hududning tarixiy yaqinligi ta'kidlanib davlatlararo barcha sohalarni muvofiqlashtirish hamda hamkorlikni yo'lga qo'yish ehtiyoji mavjudligi qayd etilib davlatlararo aloqalarni mustahkamlaydigan tashkilot tuzish lozim, deb topildi va 1981 yil 4 fevralda Fors ko'rfazi arab davlatlari hamkorlik kengashi tashkil etilib,

Baxrayn, Qatar, Quvayt, Birlashgan Arab Amirligi, Ummon va Saudiya Arabistoni davlatlarini birlashtirdi.

Kengash a'zo davlatlarning birgalikdagi jipsligi va o'zaro hamjihatligi asosida mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, shuningdek hududda iqtisodiy, siyosiy, harbiy integratsiyani vujudga keltirish maqsadida tashkil etilgan ko'p funksional davlatlararo mintaqaviy tashkilot hisoblanadi. Fors ko'rfazi arab davlatlarining hamkorlik kengashi arab va musulmon davlatlarini o'z tarkibida birlashtirgan, davlat siyosiy tuzilmalarning o'zaro bir biriga yaqinligi va o'xshashligi kabi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan tashkilotdir. «Fors ko'rfazi arab davlatlarining hamkorlik kengashi bir necha yillar davomida Yaqin Sharqdagi eng muvaffaqiyatli integratsiya loyihalaridan biri hisoblanishi ekspertlar tomonidan e'tirof etilgan».

Jumladan, Ye.Melkumyan ta'kidlashicha “Fors ko'rfazi arab davlatlarining hamkorlik kengashi doirasida ta'lim, sog'liqni saqlash, axborot va kommunikatsiya, atrof muhitni muhofaza qilish, uyushgan jinoyatchilik va giyohvandlikka qarshi kurash kabi sohalarda integratsiya jarayonlari izchil amalga oshirilmoqda”. Kengash faoliyati tahlili shuni ko'rsatadiki, tashkilot barcha a'zo davlatlar manfaatlarini e'tiborga olgan xolda qonuniylik asosida rivojlanmoqda. Tadqiqotchilarning fikricha aynan tashkilotga a'zo davlatlarning tarixiy yaqinligi va davlat boshqaruvining hamohangligi tashkilot faoliyatida muhim hisoblanib, davlatlararo integratsiya jarayonlarining samarali bo'lishida asosiy omil sanaladi.

Amerikalik olim S.Xantengtonning qayd etishicha, “Masihiy, pravoslav, buddist va yahudiy davlatlarida diniy asoslarda tuzilgan davlatlararo tashkilotlar mavjud emas, musulmon davlatlari uchun esa bunday tashkilot mavjud va u Islom konferensiyasi tashkilotidir”. Shaxnoz Axtar tadqiqotida Islom konferensiyasi tashkiloti avvalambor panislomizm natijasida namoyon bo'ldi, deya keltirib o'tiladi.

Siyosatshunos Sh.Yovqochev tashkilotning xalqaro maydondagi ahamiyati borasida “Birlashgan Millatlar Tashkiloti islom hamjamiyati olg'a surgan tashabbuslarni ijobiy qabul qilib, musulmon davlatlari xalqaro va davlatlararo tashkilotlardan avvalambor Islom hamkorlik tashkiloti faolroq ishlay boshladi”, – deb ta'kidlagan. Ye.Sidorova keltirib o'tganidek “Islom konferensiyasi tashkiloti dunyo siyosatida musulmon olamining rezolyusiya va qarorlarini “amalga oshirilishida” katta rol o'ynaydi”. Al-Fayez Muxammad Ziyob ta'kidlaganidek «Islom konferensiyasi tashkiloti o'zining o'n yillik faoliyati davomida musulmon mamlakatlarining xalqaro aloqalarini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatgan muhim vositaga aylandi. Tashkilotning faoliyati islomning ta'siri va musulmon dunyosining obro'sini oshirishga hissa qo'shdi». Bizning fikrimizcha tashkilotga a'zo davlatlarning e'tiqod birligi tashkilot faoliyatida, a'zo davlatlar o'rtasidagi hamkorlik jarayonlarining samarali bo'lishida muhim hisoblandi.

Islom hamkorlik tashkiloti faoliyat doirasida Inson huquqlari umumjaxon deklaratsiyasi qoidalariga amal qilib Viktor Luiz keltirib o'tganidek «Inson huquqlari xalqaro islom tashkilotlarining deklaratsiyalarida aks ettirilib, ularning musulmon mamlakatlari tomonidan tan olinishi va bu huquqlarni turli madaniyatlarga, musulmon dunyosining o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirilishida aks etadi». Tashkilot dasturiy hujjatlarida Inson huquq va erkinliklarining huquqiy asoslari yaratilishi, uning amalda qo'llanishi hamda kafolatlanishiga oid mexanizmning ishlab chiqilishi ma'lum bir siyosiy jarayonni bosib o'tdi. Islom hamkorlik tashkiloti tomonidan 1979 yilda «Islomda insonning asosiy huquqlari va burchlariga oid deklaratsiya loyihasi», 1981 yilda «Islomda inson huquqlari hujjat loyihasi» va 1990 yilda «Islomda inson huquqlari Qohira Deklaratsiyasi» qabul qilinishi tashkilotning inson huquqlarini himoya qilish borasidagi faoliyatiga misol bo'ladi.

Islom hamkorlik tashkiloti a'zo davlatlarining hamjihatligi borasida B.Shakeva quyidagi fikrni bildirgan: «Islom hamkorlik tashkiloti iqtisodiy, madaniy va boshqa masalalar bo'yicha manfaatdor tomonlar hamkorlik o'rnatishi mumkin bo'lgan muloqat platformasi hisoblanadi».

XULOSA

Tadqiqotchilar integratsiya ijobiy hodisa bo'lib, barcha ishtirokchi tomonlar uchun bir qator ustunliklarni vujudga keltiradigan jarayon ekanligini e'tirof etishadi. «Islom hamkorlik tashkiloti - integratsiyaga asoslangan maxsus birlashma bo'lib hozirgi kunda tashkilot faqatgina iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagina emas balki, xalqaro xavfsizlik muammolarini, turli sivilizatsiyalar o'rtasidagi ziddiyatlarni shuningdek, xalqaro miqyosdagi ko'plab dolzarb masalalarni hal etishda faol ishtirok etayotgan ko'p tarmoqli integratsiviy tashkilotdir». O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, Islom hamkorlik tashkiloti «Bugungi kunda ko'p tomonlama hamkorlik bo'yicha eng nufuzli va yirik institutlardan biri» hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2006-2008 yy.). O'zbek tilining izohli lug'ati. - Toshkent. – B.22.
2. Сидорова Е.В. Организация Исламская конференция: потенциал развития и технологии политической деятельности в процессе институционализации нового мирового порядка. Дисс. ... кан. полит. наук. –Нижний Новгород, 2009. – С.20.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 10 noyabrdagi Samarqand shahrida o'tgan «Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik» mavzusidagi xalqaro konferensiyada so'zlagan nutqi. <http://press-service.uz/ru/lists/view/1227>
4. Yovqochev Sh.A. Jahon siyosatida islom omili. – Toshkent, 2016. – B.177.

5. Хасанов Р. Организация Исламская конференция и мусульманские государства СНГ // Центральная Азия и Кавказ, 1997. - №11 // <http://www.ca-c.org/iournal/II-1997/st03hasanov.shtml>
6. Adeed Dawisha. Islam and Foreign Policy. Cambridge University Press, 1983. – R.33.
7. Aminova D.X. Globallashuv sharoitida madaniyatlararo integratsiya va siyosiy madaniyatni takomillashtirish muammolari (Misr Arab Respublikasi misolida). / Siyos. fan. nomz. ... diss. avtoref. –Toshkent: 2010. – B.76.
8. Абдулгани Джабран Эл-Захр. Лига арабских государств на современном этапе. / Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: 2003, – С.4.
9. Ал-Барамии С. Лига арабских государств. Смена приоритетов: от координации к единству. (1945-2001 гг.). / Автореф. дисс. ... канд.истор.наук. – М., 1998. – С.22.
10. Robert W. Macdonald. The League of Arab States. – Princeton, 1965. –P. 250. , Руденко Л.Н. Соловьева З.А. Лига арабских государств и интеграционные процессы в арабском мире. – М., 2007. –190 с., Абдулгани Джабран Эл-Захр. Лига арабских государств на современном этапе. / Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. – М., 2003, –24 с.
11. ОАПЕС. Secretary General’s Fourth Annual Report, 1984, – R.14.
12. Селянина Ю.Г. Арабские страны в международной торговой системе. / Автореф. дисс. ... канд. эконом. наук. – М., 2011. – С.15.
13. Мелкумян Е.С. ССАППЗ в глобальных и региональных процессах. – М., 1999. – С.130.
14. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций. –М., 2003. – С.150.
15. Shahnaz Akhtar. The Role of the Organization of the Islamic Conference in Political and Economic Cooperation of the Muslim World (1974–1994). Unpublished PHD Thesis Submitted to Bahauddin Zakariya University Multan, 2002. – R.62.
16. Yovqochev Sh.A. Jahon siyosatida islom omili. – Toshkent, 2016. – B.18.
17. Сидорова Е.В. Организация Исламская конференция: потенциал развития и технологии политической деятельности в процессе институционализации нового мирового порядка. / Дисс. ... кан. полит. наук. –Нижний Новгород, 2009. – С.92.
18. Ал-Файез Мохаммед Зия. Рол ОИК в решении региональных проблем / Автореф. дисс. ... канд. истор. наук. –М., 1990. – С.14.
19. Víctor Luis Gutiérrez Castillo. The Organization of Islamic Cooperation in contemporary international society. Revista Electrónica de Estudios Internacionales, 2014. (27). – R.3.
20. Шакеева Б. Проблема реформирования ОИС. Казахстан в глобальных протцессах. Научное издание, 2014. –№ 3 (41). –С. 68.

21. Аминуддин Мутмайин Айнуддин. Организация Исламская Конференция: Международно-правовой аспект. / Дисс. ... канд. юрид. наук. –Санкт-Петербург, 1998. – С.5.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyevning Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-vazifasini-bazharuvchi-sha-18-10-2016>